


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

“FarDU. Ilmiy xabarlar – Научный вестник. ФерГУ – Scientific journal of the Fergana State University” jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal pedagogika, filologiya, tarix, falsafa, siyosat, kimyo, biologiya hamda geografiya fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 2-sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahriri-yashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

**Bosh muharrir
Mas'ul muharrir**

SHERMUHAMMADOV B.SH.
AXMADALIYEV Y.I.

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof.	ZUOGANG PENG (Xitoy)	Janubiy-q'arbiy universitet, b.f.d., prof
ZAYNOBIDDINOV S (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof	PANASYUK M (Rossiya)	Qozon federal universiteti, g.f.d, profr
AZAMOV A (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof	VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)	Ankara Hoji Bayram Veli universiteti fil.
SAGDULLAYEV Sh (O'zbekiston)	O'zRFA t.f.d., prof	SIROJIDDINOV Sh (O'zbekiston)	f.d., prof
TURAYEV A. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, k-b,f.d., prof	ABADI, TOTOK WAHYU (Indonesia)	Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU akademigi, fil.f.d., prof
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)	O'zRFA k.f.d., prof	SCOTT LEVI (AQSH)	Universitas Muhammadiyah Sidoarjo,
ABDULLAEVA Z (Qirg'iziston)	OshDU k.f.n., dots	AZIYA ZHUMABAYEVA (Qozog'iston)	Siyosat va xalqaro huquq.
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, b.f.d., prof	SANIYA NURGALIYEVA (Turkiya)	Ohio State University, PhD, prof
G'ULOMOV S. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, i.f.d, prof	SALTANAT ABILDINA (Qozog'iston)	Abay nomidagi Qozoq milliy pedagogika universiteti
JUMABEKOVA B (Qozog'iston)	b.f.d., prof		Ataturk University
			E. A. Buketov nomidagi Qaragandi davlat universiteti

Tahririyat kengashi

PEDAGOGIKA BO'YICHA

EGAMBERDIYEVA T.	FarDU, p.f.d., prof.	DAVLYATOVA G.	FarDU, p.f.n., dots.
XONKELDIYEV Sh.	FarDU, p.f.d., prof.	BAYDJANOV B.	FarDU, p.f.n., dots.
TOJIBOYEVA H.	O'z Res FA Pedagogika ITI p.f.d. (Dsc)	ABBASOVA N.	FarDU, p.f.f.d., dots.
QURBONOVA B.	FarDU, p.f.d. (DSc), prof	GOFUROVA N.	FarDU, p.f.f.d.
O'RINOVA N.	FarDU, p.f.n., dots.	URAIMOV S.	FarDU, p.f.f.d., dots. (DSc)

Bo'lim boshlog'i: Zokirov I.I., b.f.d.,prof.

Texnik muharrirlar: Sheraliyeva J.
Mirkarimova Sh.

Musahhihlar: Mahmudov F.
O'rinboyev I.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti: Jouranal.fdu.uz

B.Sh.Shermuhammadov, Q.B.Qurbanova	
Oliy ta'limda talabalarни ijtimoiy hamkorlikka tayyorlash metodikasini takomillashtirish.....	5
T.Эгамбердиева, С.Юлдашев	
Исторические корни народных игр	11
A.A.Turaханов	
Факторы формирования психологической устойчивости у будущих военных	
руководителей к негативным идеям и социальным угрозам	17
N.R.Gafurova	
Advanced mnemonic techniques for students in language courses	23
A.N.Qosimov	
O'quvchilarda sport vositasida milliy identiklikni shakllantirishning ijtimoiy-	
pedagogik asoslari.....	30
N.R.Gafurova	
Developing critical thinking skills through integration of artificial intelligence technologies in	
reading and writing at Fergana State University.....	36
M.M.Yuldashev	
O'quvchi organizmining funksional imkoniyati va jismoniy yuklamalarga moslashuvi	42
Sh.A.Ibragimova	
Ishbilarmonlikning ijtimoiy-ma'rifiy va pedagogik jihatdan o'rganilish zarurati va uni	
rivojlanish genezisi.....	46
N.R.Gafurova	
Teaching english through film: a contextual approach to language learning.....	52
D.A.Abduraxmonov	
Bo'lajak pedagoglarda kreativ-pedagogik yondashuv asosida kasbiy kompetentlikni	
rivojlantirish bosqichlari.....	56
J.V.Solijonov	
Bo'lajak pedagoglarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari	59
N.T.Mirzamaxmudova	
Raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil ta'lim faoliyati metodikasini	
rivojlantirishning metodologik jihatlari.....	62
N.R.Gafurova	
The effect of integrating literature into second language classrooms on student engagement in	
higher education institutions.....	66
D.A.Maxmudova	
The role of technology in language teaching: enhancing engagement through digital tools.....	70
D.O.Gulamova	
Imom Al - Buxoriy ma'naviy merosining yoshlarni komillik ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati	76
N.R.Gafurova	
The impact of creative writing exercises on language proficiency and self-expression.....	82
B.M.Artikova	
Innovative approaches to developing professional competence in students of technical higher	
education institutions (based on the example of the building and construction specialty)	89
M.N.Haytboyeva	
"Rivojlanayotgan sun'iy intellekt davrida ta'lim: ChatGPT imkoniyatlari yordamida	
o'qitish va o'rganishni rivojlantirish"	93
N.U.Jamalova	
Vitagen ta'lim texnologiyalarining nazariy asoslari va gumanitar fanlarga tatbiqi	97
Sh.R.Temirov	
Umumta'lim muassasalarining boshlang'ich sinf o'quvchilarini jismoniy rivojlanishida gimnastika	
mashg'ulotlarining samaradorligi.....	101
N.R.Gafurova	
The impact of online learning platforms on school education	108



УО'К: 37.015.3:796.22

**O'QUVCHILARDA SPORT VOSITASIDA MILLIY IDENTIKLIKNI
SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK ASOSLARI**

**ОБЩЕСТВЕННО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ
НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ У УЧЕНИКОВ С ПОМОЩЬЮ СПОРТА**

**THE SOCIAL-PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF SHAPING NATIONAL IDENTITY IN
STUDENTS THROUGH SPORTS**

Qosimov Akmal Nasridinovich 

Farg'ona davlat universiteti, Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrasi katta
o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqola milliy identiklik va uning shakllanishida sportning ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan. Milliy identiklik har bir millatning o'ziga xos xususiyatlari, an'analari va qadriyatlarini o'z ichiga oladi, bu esa ijtimoiy hayotda muhim rol o'yнaydi. O'quvchilarда milliy identiklikni shakllantirishda sport vositasi jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy rivojlanish uchun muhim ahamiyatga ega. Maqolada milliy identifikasiya tushunchasi, shaxsnинг o'zini milliy jamiyatning bir qismi sifatida his etishi va sport faoliyatining insonlarni birlashtiruvchi roli haqida fikrlar keltirilgan.

Abstract

This article is dedicated to studying the importance of sports in the formation of national identity. National identity encompasses the unique characteristics, traditions, and values of each nation, playing a significant role in social life. The use of sports in shaping national identity among students is crucial for their physical, spiritual, and social development. The article presents thoughts on the concept of national identification, the individual's sense of being part of a national society, and the unifying role of sports activities.

Аннотация

Данная статья посвящена изучению значению спорта в формировании национальной идентичности. Национальная идентичность включает в себя уникальные характеристики, традиции и ценности каждой нации, что играет важную роль в социальной жизни. Спорт как средство формирования национальной идентичности имеет значительное значение для физического, духовного и социального развития учащихся. В статье рассматриваются понятия национальной идентификации, ощущение личности как части национального общества и объединяющая роль спортивной деятельности.

Kalit so'zlar: milliy identiklik, sport, jismoniy tarbiya, ma'naviy rivojlanish, ijtimoiy rivojlanish, milliy qadriyatlar, an'analari, ta'lim va tarbiya, O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi, kadrlar tayyorlash, innovasion ta'lim, muktabgacha ta'lim, umuminsoniy qadriyatlar, globalashuv, migrasion jarayon.

Ключевые слова: национальная идентичность, спорт, физическое воспитание, духовное развитие, социальное развитие, национальные ценности, традиции, образование и воспитание, стратегия развития Узбекистана, подготовка кадров, инновационное образование, дошкольное образование, общечеловеческие ценности, глобализация, миграционные процессы.

Key words: national identity, sport, physical education, spiritual development, social development, national values, traditions, education and upbringing, Uzbekistan development strategy, personnel training, innovative education, preschool education, universal values, globalization, migration processes.

KIRISH

Milliy identiklik — bu har bir millatning o'zgacha xususiyatlari, an'analari va qadriyatlarini o'z ichiga oluvchi, uning ijtimoiy hayotida muhim o'rın tutadigan tushuncha. O'quvchilarда milliy identiklikni shakllantirishda sport vositasining ahamiyati katta. Sport, nafaqat jismoniy rivojlanish, balki ma'naviy va ijtimoiy rivojlanish uchun ham muhim vosita hisoblanadi.

Milliy identifikatsiya — bu shaxsnинг o'zini milliy jamiyatning bir qismi sifatida his etishi, o'z milliy qadriyatları, an'analari va madaniyati bilan bog'liqlik hissini anglatadi. Ushbu konsepsiya, jamiyatning barqarorligi va rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Milliy identifikatsiya ni

PEDAGOGIKA

shakllantirishda sportning roli alohida ahamiyatga ega, chunki sport faoliyati insonlarni birlashtiradi, ularni umumiy maqsadlar atrofida jamlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbek pedagogika fani, ta'lif va tarbiya jarayonini mazmunan yangilash borasida yangi nazariy konsepsiyalarni yaratishda faoliyat yuritmoqda. Umumta'lif fanlarini o'qitishda amalga oshirilayotgan tub islohotlar, maktab darsliklarining yangi avlodlari yaratilishi va sinovdan o'tkazilishi bilan bog'liq. Har bir fan uchun bir necha muqobil darsliklar yaratilgan bo'lib, ularda maktab o'quvchilarini milliy ruhda tarbiyalashga alohida e'tibor berilgan.

O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi muhim omillardan biri ta'lif va tarbiya'ning ustuvorligi hisoblanadi. "Ta'lif, tarbiya va rivojlanishning uyg'unligi qonuniyati" va Sharq pedagogikasining falsafiy qonuniyati, ta'lifni tarbiyadan, tarbiya'ni esa ta'lifdan ajratib bo'lmasligini ta'kidlaydi. Abu-l-Mu'in an-Nasafiyning "Kitob at-tavhiyd li-qavo'id at-tavhiyd" asarida keltirilgan "Bilish nazariysi" va boshqa asarlarda bolalarning bilim olish huquqlari, ta'lif-tarbiya tizimining takomillashuvi, o'quvchilarning imkoniyatlari va qobiliyatlarini hisobga olish dolzarb masalalar sifatida kun tartibiga qo'yilgan.

"Kadrlar tayyorlashning milliy modeli" yoshlarning jahon miqyosidagi yutuqlarini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Hukumatimiz tomonidan qabul qilingan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da innovasion ta'lif-tarbiya texnologiyalarini joriy etishni bosqichma-bosqich amalga oshirish ko'rsatilgan. Milliy identlikni shakllantirish, barkamol avlodni voyaga yetkazish, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash o'zbek pedagogikasi oldidagi ulkan vazifalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 22-oktyabrda qabul qilingan "Maktabgacha ta'lif va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni va 2020-yil 23-sentyabrdagi yangi tahrirdagi "Ta'lif to'g'risida"gi Qonunlarda ta'lif va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilishi prinsipi kiritilgan. Bu o'quvchilarda milliy identlikni shakllantirishning ijtimoiy pedagogik mexanizmini takomillashtirish metodologiyasining asosini tashkil etadi.

Jahon hamjamiatida yuz berayotgan siyosiy o'zgarishlar globallashuvga olib kelmoqda. Yer sayyorasining turli hududlarida istiqomat qiluvchi xalqlar umumiy migratsion jarayonni boshlab bermoqda. Avvallari Afrika va Yevropa qit'alarida kuzatilgan migratsion jarayon, Markaziy Osioni ham chetlab o'tayotgani e'tiborga molikdir.

Mamlakatimizda milliy identlik masalalari, milliy o'zlikni anglash, milliy mentalitet va millatlararo munosabatlarni o'rganish masalalari F.Abdurahmonov, J.Bahromov, N.Nazarov, R.Rahmonov, Z.G'afurov, Q.Xonnazarov, S.Atamurodov, A.Achiliev, A.Ashurov, B.Qosimov, B.Karimov, SH.Qahhorova, SH.Madaeva tadqiqotlarida o'z aksini topdi, mazkur dissertatsiya ishini yoritishda va tarixiy talqinini berishda xizmat qilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan B.Ashmarin, V.Balsevich, M.Vilenskiy, G.Germanov, S.Kramskoy, L.Lubisheva, O.Masalova, L.Matveev, Yu.Nikolaev, S.Pavlov, I.Sechenov, V.Smolevskiy, A.Sunik, G.D.Xarabugi kabilar o'quvchilarni jismoni tarbiyasini tashkil etish jarayonlarining modernizatsiyalashning innovatsion texnologiyalari, sportga doir madaniyatini shakllantirish masalalarini o'rganishgan.

Shuningdek,, MDH mamlakatlarida S.Abashin, I.Shteynberg, N.Lebedeva, G.Soldatova, S.Ikonnikova, L.Ionin, T.Stefanenko, N.Antonova va boshqa olimlar o'zlarining ilmiy tadqiqotlarida identlik masalalarining jamiyatda o'zlikni anglash, ijtimoiy-madaniy tajriba, madaniy-tarixiy xotira va sotsiomadaniy meros bo'lib qolishini ta'kidlab, ijtimoiy psixologik nazariy muammo sifatida o'ranganlar.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bugungi axborotlashgan jamiyatda axborotlar orqali insonlarga ta'sir ko'rsatish eng oson va samarali usulga aylanib ulgurgan sharoitda sog'lom turmush tarzining eng muhim tarkibiy qismi sifatida jismoni tarbiya va sportni targ'ib qilish hamda bu jarayonda yuqori darajali axborotlashtirishni va multimedia mahsulotlaridan foydalanishni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu orqali o'quvchilarda sport vositasida milliy identlikni shakllantirish jarayoniga yo'naltirish, qiziqishlarini oshirish va ulardagi motivatsiya ni rivojlantirish mumkin bo'ladi. Buning uchun esa, «ommaviy axborot vositalarida jismoni tarbiya va sportni rivojlantirish loyihalarini qo'llab-quvvatlash, jismoni tarbiya va sportni targ'ib qilish, yetakchi televizion kanallarning sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish bo'yicha ishlari sifatini oshirish, sog'lom turmush tarzi,

jismoniy tarbiya va sport sohasida kinematografik, bosma va ko'rgazmali mahsulotlar, teleradiodasturlarni hamda Internet-resurslarni yaratish va tarqatish bo'yicha davlat buyurtmasini shakllantirish, «Sport barcha uchun» harakati doirasida radio eshittirishlar va televidenyeda axborot-tahliliy ko'rsatuvlar turkumini efirga uzatib borish, yosh avlod o'tasida jismoniy tarbiya va sportni, ayniqsa, jismoniy sog'lomlashtirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishda Internet imkoniyatlaridan keng foydalanish hamda aholini jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishga jalb etish va targ'ib qilish bo'yicha ilmiy-uslubiy, ijtimoiy-ommabop materiallar hamda qo'llanmalarni nashr etish» [3] talab etiladi.

O'quvchilarni jismoniy tarbiyalash tizimida o'quvchi shaxsini har tomonlama shakllantirish prinsiplari muhim ahamiyatga ega. Ular yosh avlodni ilk o'quvchilik yoshidan jismoniy va ma'nnaviy kuchga to'liq, garmonik rivojlangan, jismonan baquvvat qilib tarbiyalash haqidagi ko'rsatmalari bilan belgilanadi. O'quvchilarda jismoniy qobiliyatni, harakat malakalari va ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradigan, o'quvchi shaxsini tarbiyalashni birgalikda hamda ayni paytda har tomonlama (ahloqiy, aqliy, estetik, mehnat tarbiysi) amalga oshiradigan yondashishni ko'zda tutadi. Jismoniy tarbiya tizimidagi bunday majmuaviy yondashish «kishilarning individual xususiyatlari, yosh rivojlanishi bosqichlari xususiyatlari, hayotning u yoki bu davrida asosiy faoliyat sifatida tanlanadigan jismoniy tarbiya faoliyati turlari xususiyatlari va boshqa vaziyatlarga ko'ra konkretlashtiriladi» [4].

Umumiy o'rta ta'lismiz tizimi o'qitish jarayonida o'quvchilarning sport faoliyatiga yo'naltirishga qaratilgan jismoniy tarbiya dars mashg'ulotlari vazifalari bolalarni jismoniy tarbiya dasturida tavsiya qilingan mashqlarni bajarishga, o'rganilgan mashqlarni mustahkamlash va takomillashtirishga, shuningdek,, malaka va ko'nikmalarini rivojlantirishga hamda o'rganilgan mashqlarni turli sharoitda amaliyotda qo'llashga o'rgatishga yo'naltiriladi va shu orqali ularning jismoniy imkoniyatlari baholanadi. Turli jismoniy mashqlarni bajarish imkoniyati va qobiliyailarini baholash orqali ularni sport turlariga yo'naltirish mumkin bo'ladi. Shu bilan birga mакtab ta'limidagi jimsoniy tarbiya o'quvchilarni sog'lom turmush tarziga tayyorlashi, yo'naltirish, sag'lomlashtirish funktsiyasini yuqori darajada bajarishi kerak bo'ladi. O'quvchilarni sog'lomlashtirish bilan bog'liq faoliyatga yo'naltirish jamiyatda sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek,, maktabda o'qitiladigan barcha fanlarni tabiat va inson salomatligiga bog'liq ekanini tushuntirib o'rgatilganda uning bolalar ongiga ta'siri kuchli bo'ladi. Jismoniy tarbiya o'quvchilarning sog'lig'ini mustahkamlashda, ularni shaxsiy har tomonlama uyg'un kamol toptirishda, mehnat va Vatan himoyasiga tayyor bo'limlari uchun hayotiy muhim bo'lgan harakat ko'nikma va malakalarni egallahsha muhim o'rın kasb etadi. Zero, mакtab yoshi bolalarning jismoniy rivojlanishi va tez o'sish davridir, shuning uchun mакtab o'quvchilarni jismoniy rivojlanish, normal o'sishni ta'minlash uchun ham kuch-quvvatni sarflash zarur.

Jismoniy ta'lismi rivojlantirish asosida o'quvchilarning jismoniy imkoniyatlarini oshirish bilan birga ularning ruhiyatini ham barqarorlashtirish, ruhiyatiga ijobiy ta'sir etuvchi ta'lim metodikasini yaratish yuksak ma'nnaviy va axloqiy salohiyatga ega bo'lgan, yuqori malakali va jismonan yetuk, kuchli irodali o'quvchilarni tayyorlash masalalari doirasida xorijiy tajriba, rivojlangan davlatlar amaliyoti o'rganilmoqda. O'rganilgan tadqiq va tahlillarga ko'ra aqliy va jismoniy yetuk mutaxassislar tayyorlaydigan ta'lim muassasalarining o'quv – tarbiya jarayonini davr talablari asosida tashkil etish, ta'lim-tarbiya ishlarni samaradorligini oshirish uchun uning yo'nalishlarini ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkillashtirish talab etiladi. Zero, davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek, «Bugungi kunda shiddat bilan o'zgarib borayotgan hayot, oldimizga qo'yayotgan bir-biridan murakkab va muhim masalalarni hal qilish haqida o'ylar ekanmiz, ularning yechimini ayanan ta'lim-tarbiya bilan, yoshlarning dunyoqarashini zamonaviy bilim, yuksak ma'nnaviyat va ma'rifat asosida shakllantirish bilan bog'liq ekaniga yana bir bor ishonch hosil qilamiz» [5]. Darhaqiqat, ijtimoiy muammolarning barchasi ta'lim-tarbiya, jamiyatning ilmiy salohiyati va dunyoqarashining yuksak emasligi bilan o'chanadi.

Milliy identiklikni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari:

- rivojlantiruvchi diagnostika (shaxs tavsifnomasini, imkoniyatlarini aniqlash, o'z imkoniyatlarini kuchaytirish, yo'l-yo'riqlarini ishlab chiqish kabilalar nazarda tutiladi). Natijada, bu refleksiv tahlilni rivojlantiradi hamda refleksiv nazorat, boshqaruv, rejalashtirishni va umuman olganda, bo'lajak mutaxassis sifatida refleksiv madaniyatni shakllantiradi.

PEDAGOGIKA

- psixologik maslahat;

- shaxsiy va intellektual profil korreksiyasi kabilalar kiradi. Ushbu bosqich samaradorligini oshiruvchi jihatlar: izchil ravishda shaxsiy va intellektual rivojlanish, umumiyligini qobiliyatlarning taraqqiy etishi, intellektual, kommunikativ, kooperativ va shaxsiy refleksiya ning tarkib topishi, "Men" obrazining korreksiyasi, ijtimoiy identifikasi, o'zini o'zi shakllantirish, optimistik ijtimoiy pozisiyalar hisoblanadi.

Identifikasiya (4-5 bosqich) da kasbiy identifikasi shakllantirishda bo'lajak amaliy faoliyatga tayyorlikni hosil qilish kabi vazifalar yetakchi o'rinni egallaydi. Natijada, shaxs kasbiy qadriyatlari shakllana boshlaydi. Ko'p hollarda talabalar oila quradilar va katta hayotga qadam qo'yadilar. Psixologik qo'llab-quvvatlashda kasbiy qibiliyatlarning yakuniy diagnostikasi amalga oshiriladi.

Biz o'quvchilarda milliy identifikasi shakllantirishning ijtimoiy pedagogik mexanizmini takomillashtirishga doir pedagogik ishlamalarimizning tajriba sinovidan o'tkazish jarayonida quyidagi jihatlarga e'tibor qaratdik:

Og'zaki so'rovnomalari: O'quvchilar identligini aniqlash maqsadida ular bilan og'zaki so'rovnomalari tashkil etdik. Bu jarayonda o'quvchilarning fikrlari va his-tuyg'ularini aniqlashga erishdik.

Xulq-atvorni kuzatish: O'quvchilarning xulq-atvorini kuzatish, jamoada o'zini tutishlari va yurish-turishlari orqali identlik belgilarni aniqlashga harakat qildik. Bu, o'z navbatida, ularning ijtimoiy munosabatlarni yaxshilashga yordam berdi.

Tarbiyaviy ishlarni tahlil etish: Uzlusiz ta'limga olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarni bilan tanishish orqali milliy identifikasi shakllantirish parametrlarini belgilab olishga e'tibor qaratdik. Bu o'quvchilarning milliy qadriyatlarni anglashlariga yordam berdi.

Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish: O'quvchilarning milliy identligini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish texnologiyasini umumta'limga maktablari o'quvchilarining sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish jarayonida qo'llashni ma'qul topdik. Tashkil etilgan tadbirdorda o'quvchilarning o'yin qaroqliklari inobatga olingan bo'lib, ularning o'quv mashg'ulotlaridan toliqishlari, zerikishlarini unitishiga ham xizmat qildi.

Tadbirdarning tashkil etish prinsiplari

O'quvchilarda milliy identifikasi shakllantirishning ijtimoiy pedagogik mexanizmini takomillashtirishga doir pedagogik ishlamalarimiz muktab bolalarining yosh xususiyatlaridan kelib chiqib, oddiydan murakkabga tomon tamoyiliga asosan materiallarni tanlash prinsipiga amal qilingan.

Boshlang'ich sinf: Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan milliy harakatli o'yinlar, milliy bolalar qo'shiqlarini ijro etish, tadbir ishtirokchilarining klassik milliy liboslarda bo'lishlari urug'u berilgan.

Yuqori sinf: Yuqori sinf o'quvchilari bilan "obrazli tasvir → tasavvur → talqin" tamoyili asosida tarbiyaviy tadbirdarni tashkil etish yaxshi samara berishini aniqladik. Tadbir tashkilotchilari ham ishtirokchilar-yu tomoshabin ham bolalar. Tarbiyachi faqat tadbirni tayyorlash jarayonida rejissyorlik vazifasini bajaradi.

Tarbiya jarayonidagi O'zgarishlar

Bu prinsip o'quvchilarning jamoada ishlashlari, loyiha metodini o'zlashtirishlari, o'zini o'zi boshqarish ko'nigmalarini shakllantirish asnosida ularda haqiqiy o'zbek milliy qahramonining sifatlarini o'zlashtirish va namoyish qilishlari turtki bo'ladi.

Bitiruvchi sinf o'quvchilari bilan tashkil etiladigan tarbiyaviy ishlarni tubdan farqlanadi. Endi ular tarixiy dallillarni o'zlashtirishlari, ularni tahlil qilish va tarixiy voqealarga munosabat bildirishlari talab etiladi.

Bitiruvchi sinf o'quvchilarining tarixiy-siyosiy hodisalar borasida mantiqiy mulohaza yurita olishlari, bahs-munozara tashkil etish, kreativ fikrlash ko'nigmalariga ega bo'lishlari uchun imkon yaratadi.

O'quvchi tasavvurida jonlangan, muhrlangan shonli tarixga doir dalillar uning ongida o'zligiga ko'chadi, uning "men"i mohiyatidagi muhim sifatlardan biri bo'lib qoladi.

Psixolog talabalarga o'zini o'zi kasbda shakllantirishga, refleksiya hosil qilishga yordam berish kerak. Shu bilan birga oilaviy va intim masalalarda ham psixologik yordam berish nazarda tutiladi.

Eng asosiysi talabalarga o'zini o'zi anglashda, kasblar olamida o'z o'rnni topishga yordam berishdir. Bu bosqichning muvaffaqiyatlari kechishini bir necha jihatlari mayjud:

- o'zini bo'lajak kasb egasi sifatida tasavvur eta olish;
- mustaqil faoliyat yuritishga tayyor bo'lish;
- o'zini o'zi namoyon eta olish;

-o'z imkoniyatlari darajasini ko'rsatish, o'ziga bo'lgan yuqori baho, o'z-o'ziga ishonch, past darajadagi ijtimoiy xavotirlanish, yuqori darajadagi refleksiyaga ega bo'lish bilan bevosita bog'liqdir.

Sport va milliy identiklik

Sport vositasida milliy identiklikni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari shundan iboratki, sport faoliyati orqali o'quvchilar o'z millatlarining an'analarini, qadriyatlarini va tarixini o'rganadilar. Sport musobaqlari, jamoa o'yinlari va milliy sport turlari orqali o'quvchilar milliy birlik, hamjihatlik va jamoa ruhini his etadilar.

Sport va milliy identifikatsiya

Sportning ijobjiy ta'siri: Sport, jamiyatdagi turli qatlamlarni birlashtirish, milliy g'ururni oshirish va umumiy maqsadlar uchun kurashish imkonini beradi. Sport musobaqlarida ishtirot etish, yoshlarning milliy jamoa bilan birlashish hissini kuchaytiradi.

Madaniy an'analar: Milliy sport turlari va an'anaviy o'yinlar, milliy identifikatsiya ni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu an'analar, yoshlarga o'z milliy merosini his qilish va uni hurmat qilish imkonini beradi.

Ta'lim va tarbiya: Sport, ta'lim jarayonida yoshlarning barqaror xulq-atvorini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Sport faoliyati, yoshlarning jamoa bilan ishlash, raqobatlashish va muvaffaqiyatga erishish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Ijtimoiy-pedagogik asoslar

Ta'lim va tarbiya: Sport faoliyatida o'quvchilarga milliy qadriyatlarni o'rgatish, ularni milliy an'analar bilan tanishtirish muhim ahamiyatga ega. Misol uchun, milliy sport turlarini o'rganish orqali o'quvchilar o'z millatlarining tarixini va madaniyatini yaxshiroq tushunishlari mumkin.

Jamoa ruhi: Sport jamoaviy faoliyat bo'lgani uchun o'quvchilar o'rtasida hamjihatlik, do'stlik va hamkorlik hissini shakllantiradi. Bu, o'z navbatida, milliy identiklikni mustahkamlashga yordam beradi.

Madaniy almashinuv: Sport musobaqlarida ishtirot etish, turli millatlar bilan aloqalarni o'rnatish imkonini beradi. Bu jarayonda o'quvchilar milliy identiklikni saqlash bilan birga, boshqa madaniyatlarni ham o'rganadilar.

XULOSA

O'quvchilarda sport vositasida milliy identiklikni shakllantirish ijtimoiy-pedagogik asoslarga ega bo'lib, bu jarayonda ta'lim, jamoa ruhi va madaniy almashinuv muhim rol o'ynaydi. Sport faoliyati orqali o'quvchilar o'z millatlarining qadriyatlarini, an'analarini va tarixini o'rganib, milliy identiklikni mustahkamlashlari mumkin.

Milliy identlikni shakllantirish, ta'lim va tarbiya jarayonida muhim ahamiyatga ega. O'zbek pedagogikasi zamon talablariga javob beradigan, milliy qadriyatlarni inobatga olgan ta'lim tizimini yaratishda faoliyat yuritmoqda. Bu esa kelajak avlodlarning ma'naviy va intellektual rivojlantishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Milliy identifikatsiya ni shakllantirishda sportning roli katta. Ushbu jarayonda sport faoliyati, yoshlarning milliy qadriyatlarini anglashlari, jamiyatdagi o'rnnini his qilishlari va barqaror xulq-atvorni shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi shuning uchun sportni rivojlantirish va uni yoshlar orasida keng targ'ib qilish, milliy identifikatsiya ni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Takliflar

Milliy sport turlarini ta'lim jarayoniga keng joriy etish.

Sport musobaqlarida milliy qadriyatlarni namoyon etish uchun maxsus tadbirlar o'tkazish.

O'quvchilarni jamoa o'yinlariga jalb qilish orqali jamoa ruhini shakllantirish.

Ushbu maqolada ko'rsatilgan ijtimoiy-pedagogik asoslar orqali o'quvchilarda milliy identiklikni shakllantirishda sport vositasining ahamiyatini yanada kuchaytirish mumkin.

PEDAGOGIKA

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent.: O'zbekiston. 2018, -B.37.
2. Norqobilov M.N., Mirxodjayeva Z.S., Mahmudov V.V. Jismoniy madaniyat va sport mashg'ulotlarida sog'lom turmush tarzini talabalar ongiga singdirishda pedagogik yondashuvlar. Monografiya. Toshkent.: TIQXMMI, 2019, -B. 6-7.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» to'g'risidagi PF-5924-son Farmoni. 2020 yil 24 yanvar.
4. O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi. 2020 yil 24 yanvar.
5. Губа В.П. и др. Измерения и вычисления в спортивно-педагогической практике. Москва.:Спорт академ Пресс, 2002. –C.86.